

2022- yil uchun Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

49 520,8

YAHM o'sish
sur'ati

105,6 %

YAHM deflyator
indeksi

110,1 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil uchun Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 49 520,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 5,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariga nisbatan 110,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,6 % ga yetdi.



**2022- yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**


	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	42 560,2	49 520,8	105,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	40 654,2	47 264,0	105,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1 906,0	2 256,8	110,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	40 654,2	47 264,0	105,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17 120,6	19 481,4	103,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 599,5	11 457,2	109,1
sanoat	6 902,2	8 125,3	110,5
qurilish	2 697,3	3 331,9	105,8
xizmatlar	13 934,1	16 325,4	105,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 610,0	3 291,1	111,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 106,1	2 492,1	112,1
boshqa xizmat tarmoqlari	9 218,0	10 542,2	101,7



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 372,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 % ga yuqoridir.

**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o'sish sur'atlari**
*(o'tgan yilning mos davriga
nisbatan % hisobida)*



**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi**
(ming so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,5	95,4
mahsulotlarga sof soliqlar	4,5	4,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	42,1	41,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	23,6	24,2
sanoat	17,0	17,2
qurilish	6,6	7,0
xizmatlar	34,3	34,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,4	7,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,3
boshqa xizmat tarmoqlari	22,7	22,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 42,1%

Sanoat 17,0%

Qurilish 6,6%

Xizmatlar 34,3%

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 41,2%

Sanoat 17,2%

Qurilish 7,0%

Xizmatlar 34,6%

● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2022- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 41,2 % ni, sanoat tarmog'i 17,2 % ni, qurilish 7,0 % ni va xizmatlar sohasi 34,6 % ni tashkil qildi.



2022- yil uchun YAHM o'sishida
tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



5,6

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi



1,5

Sanoat



1,7

Qurilish



0,4

Xizmatlar



1,6

Mahsulotlarga
sof soliqlar



0,4





YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,5 f.p. (2021- yilda – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2021- yilda – 2,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2021- yilda – 1,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,6 f.p. (2021- yilda – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilda – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.



YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2022- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 41,2 %), sanoatda – 110,5 % (17,2 %), qurilishda – 105,8 % (7,0 %), xizmatlar sohasida – 105,1 % ni (34,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,5 % (7,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,1 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,7 % dan (22,3 %) iborat bo'ldi.



■ 2021- yil
■ 2022- yil

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




2022- yilning YAHM deflyatori indeksi 2021- yildagi narxlarga nisbatan 110,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 116,8 % va xizmatlar sohasida – 111,5 % qayd etildi.




Qurilish



Xizmatlar



**Kichik biznesning hajmi
va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)**



2022- yilda kichik tadbirkorlik 32 198,1 mlrd. so‘mni tashkil etib (2021- yilda – 28 436,0 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 68,1 %ni tashkil qildi (2021- yilda – 69,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

